

Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

Sobirova Zuhrajon Davronbekovna

Urganch davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tukli Xiva gilamlarida ishlataladigan yangi dizaynli milliy naqsh motivlarining to'qima yuzasida joylashuvi, naqshlarning o'ziga xos xususiyati va undagi ranglarning ishlatalishi, naqshlarni yaratish ketma-ketligi keltirilgan.*

Annotation: *The article promotes the use of automation project systems in the creation of patterns used in feather rugs. There are also systems of automated design programs, their types and technological features, design motifs used in carpets and the sequence of their creation.*

Аннотация: В данной статье представлено расположение новых орнаментальных мотивов национальных мотивов, используемых в хивинских шерстяных коврах, на поверхности ткани, характерные особенности узоров и использование в нем цветов, а также последовательность создания узора.

Kalit so'zlar: *ornament, naqsh, gilam, ramz, ip.*

Respublikamiz hududida qadim-qadim zamonlardan boshlab ota-bobolarimiz hunarmandchilik bilan shug'ullanib, yillar mobaynida rivoj topib topib kelmoqda. Ular orasida gilamdo'zlik ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, asosan uyni bezatishdan tashqari foydali jihatni ham bor. Ya'ni, gilam xona devoridagi sovuqni biroz bo'lsada ushlab turish va yozda issiqdan saqlash uchun xizmat qiladi. Gilamdagagi har bir naqsh va element o'zining ramziy ma'nosiga ham ega bo'lgan. Ularni yaratgan mohir qo'l egalari gilamlardan o'zining ichki dunyosi, atrof-muhit, diniy va dunyoviy qadriyatlarini, hayot falsafalarini hamda kundalik turmush tarzini aks ettirishga intilganlar.

Yurtimizning deyarli barcha tarixiy-madaniy hududlarida gilamdo'zlik san'ati rivojlangan. Ularning har biri o'ziga xos xususiyatga ega. Bir tarixiy-madaniy hudud gilami va gilam mahsulotlari boshqa hudud namunalarini takrorlamaydi. Ular nafaqat o'lchami, balki umumiy ranggi, naqsh va ornamentlari bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra ularning ramziy ma'nolari ham hudud aholisining dunyoqarashi bilan bog'liq.

Gilam to'qish ko'plab millatlarda ma'lum va qadimgi davrlardan boshab estetik, ritm va ranglarning estetikasini aks ettirgan

O'zbek gilamdo'zligi o'zining milliy ananalarini saqlagan holda yangidan-yangi tajribalar bilan boyitildi. Xiva, Andijon, Samarkand, Qarshining tukli, Shahrisabzning taqir gilamlariga bo'lgan ehtiyoj katta. Xiva gilamlari o'ziga xosligi, turli xil naqsh bezaklari, rang-barangligi bilan hamisha xaridorlar e'tiborini o'ziga jalb qilib kelgan. O'z navbatida Xiva gilami dunyo miqyosida o'z brendiga ega bo'lib ulgurgan sanoat mahsulotlari sirasiga kiradi. Xorazm viloyatining yirik sanoat korxonalaridan biri bo'lgan "Xiva gilamalari" ma'sulyati cheklangan jamiyati a'zolari bugungi kunda ishlab chiqarish ko'lami va sifatini oshirish uchun astoydil harakat qilyaptilar. Xiva gilamlari jahoning o'ndan ortiq

mamlakatlariga eksport qilinadi. Chet eldan kelayotgan sayyohlar qo'l mehnati yordamida to'qilayotgan gilamlarimizga doimo yuqori baho bergenlar.

Prezidentimiz "Gilamlarga naqsh solib to'qish noyob san'at. Buni har kim ham uddalay olmaydi. Naqshlarga milliy ruh kiritib, xaridorlarni jalb etadigan ranglardan foydalanish kerak. Bu butun dunyo uchun O'zbekiston brendi bo'ladi" deya gapirgandilar.

Tukli qo'lda to'qiladigan Xiva gilamlar asos ipga rangli iplardan bandlar hosil qilib yaratiladi. Shu bilan birga ajoyib naqshlar hosil qilinadi. Tugun uchi matoning yuz tomoniga chiqarib tekis qirqiladi. Har bir qatordan so'ng arqoq ip o'tkazib, maxsus temir tayoqda uring mahkamlanadi. Tayyor bo'lган gilamimiz maxsus kimyoviy moddalar yordamida yuviladi. Gilamlar asosan qo'y va tuya junlaridan to'qiladi.

Gilamlardagi naqshli to'qima hosil qilish uchun, ornamental naqshlarni patronlash ishlari bir necha oylarga cho'zilgan. Zamonaviy elektron dastgohlar va jakkard mashinalarini takomillashtirilishi bu kamchiliklarni barta'raf etdi va ular o'zini dasturlash tili va buyruqlar majmuasiga ega.

Gilamlarning to'qima, tikma va bosma xillari mavjud. Gilamlar kalta tukli 3-7 mm va uzun tukli 8-17 mm qilib to'qiladi. Xiva gilamalarini ko'pchiligi asosan uzun tukli bo'lib zinch to'qiladi. Bu esa gilamning og'rilinga ham tasir ko'rsatadi.

Naqshning asosiy tasnifi o'ziga xosligi, maqsadi va mazmunidir. Shu sababli, barcha bezak shakllari bir nechta guruh yoki turga birlashtirilishi mumkin.

Xiva gilamlarida asosan to'q qizil, och qizil ranglardan keng foydalanishgan. Qizil rang sharqona gilamlarning eng keng tarqalgan ranglaridan biridir. Bezagi ham o'ziga xos xususiyatga ega. Gilamda geometrik naqshlar bilan birga atrofida nozik hoshiya mavjud [1].

Xiva gilamining estetik prinsipi – shakllar, mavzular va g'oyalarning xilma-xilligi, tasvirlarning tekisliklar bilan yechimi, naqshning ritmi, markaziy va hoshiyalarga ajralish an'anasi va atrofdadgi haqiqat unsurlarini umumlashtirilgan shakllarga keltirish bo'lган. Hoshiyalar ikkita bo'lib, ular oralig'i yillar mobaynida o'zgarishsiz saqlangan. Ikki hoshiyaning o'rtasida statik (bir- biriga nisbatan simmetrik naqshlarning o'lchamlari va oralaridagi masofaning saqlanishi) holatda joylashgan. Ellipsimon naqsh ornamentining chet qismlariga o'lchamlari kichik bo'lган uchburchaklar, naqshimizning o'rta qismida charaqlab turgan quyosh tasviri bor. Ellips shakli naqshning ichki va tashqi qismlarida tasvirlangan. Gilam yuzasida aks etishiga qarab bu naqshlar to'qimada gorizontal va frontalga yo'naliшlarida aniqlik bilan joylashtirilgan va rapportda takrorlangan. Gilamimizning o'rta qismida tangani eslatuvchi va tamg'aga o'xshash naqsh rapport doirasida takrorlangan. Qadimda xon saroylaridagi bezaklarda ushbu nashni ko'rishimiz mumkin. Naqshning ichki qismi mayda elementlar bilan simmetrik holda to'ldirilgan. Ranglardan chet qismida oq va jigarrang, o'rtasida qizil va qora ranglardan foydalanilgan. Geometrik naqshlar yordamida chiroyli kompozitsiya yaratilgan. Besh qirrali yulduz, sakkiz qirrali yulduz, uchburchak, romb asos qilib olingan. Bu yerda uchburchak insonning tanasini, ruhiy holatini va aqlini birga bo'lishini bildiradi. Sakkiz qirrali yulduz davlatning tiklanishi belgisi, romb-omad belgisini o'zida aks ettirgan. Bu gilam kompozitsiyasida oq ,

tilla rang, jigarrang, ko'k, qora ranglar yordamchi to'ldiruvchi ranglar. Ular naqshimizning ichki qismlarida ishtirok qilgan bo'lib, fon sifatida qizli rangdan foydalanishgan [2]. 1-rasmda yangi dizayndagi ornamentlar ko'rsatilgan. Bu ornamentlar o'zaro bir-birlari bilan hamohang joylashgan. Qalampirmunchoq yomon ko'zdan saqlash ma'nosini bildirsa, anor – oila, serfarzandlik ramzi hisoblanadi. Bodom – ezgulik, qo'sh bodom – baxtli juftliklarni ramziy ma'nosi hisoblanadi



1-rasm. Yangi dizayndagi naqsh kompozitsiyalari ko'rinishi:

- a) qalampirmunchoq va anor ornamenti; b) Qo'sh bodom ornamenti

Qadimiy Xiva gilami uchun yaratilgan yangi naqsh dizaynnini 2-a rasmda ko'rishimiz mumkin. Hozirgi kunda yirik naqshli gilamlarimizga bo'lgan talab yuqori darajada bo'lib, naqsh elementlari o'chamini kattalashtirish, va milliyligimizni saqalagan holda Xiva gilami uchun yangi naqsh kompozitsiyasi yaratildi.

Ushbu gilam mahsulotimiz uchun yaratilgan naqsh kompozitsiyamizda tamg'a naqshimiz geometrik ornamentlardan tuzilganligi bois, u gilamimizning chetki qirralariga o'lchamlari kattalashtirilgan holda joylashtirildi [3].

Xiva gilami uchun xos bo'lgan qizil rang saqlanib qolingan. Naqshlarda qizil rang asosiy, jigarrang, moviy, kulrang, qora ranglar to'ldiruvchi ranglar hisoblanadi. Yaratilgan Xiva gilam kompozitsiyamizda biz tabiiy va geometrik ornamental naqshlardan foydalanib yangi dizayn namunasini ko'rishimiz mumkin.

Katta o'lchamdagи naqshlar gilamga alohida ma'lum bir qism miqyosida to'qiladi. Gilamning tashqi ko'rinishini, uning fakturasi (uslubi), rangi va naqshini aniqlaydi. Faktura deb mahsulotni sirti tuzilishining tusi, hajmiy darajasini, og'irligini tushiniladi.



a)



b)

2-rasm. a-Xiva gilami uchun milliy naqsh dizayni, b- Millitrovkaga chizilgan gilam naqshining hoshiyasi 4\1 qismi

Mahsulotning hajmiy darajasini, og'irligini, zichligini baholashda mahsulot fakturasi katta ahamiyatga egadir. Shaffof, yaltiroq, silliq yuzalar gilamga yengillik baxsh etibgina qolmay, balki tashqi ko'rinishini kichraytiradi. Zich, shaffof bo'limgan, qoramtilr tusli gilamlar bir qaraganda og'ir va keng hajmli qilib ko'rsatadi. Naqsh shakli va chiziqlari bo'yicha aniq, ravshan, jonli bo'lishiga kerak. Tukli gilamlarning naqsh yoki guli sanama iroqiga o'xshatib, rangli iplarni nusxaga qarab terish asosida yaratiladi (2-b rasm). Biroq naqsh kashtada kesishgan baxya choklar miqdoriga bog'liq bo'lsa, tukli gilamda bog'langan bandlarning miqdoriga bog'liq bo'ladi. Naqsh yaratishda bandlarning hisobi aniq bo'lishi kerak. Bir qator band bog'lanib chiqilgach, arqoq o'tkazilib, taroq bilan bostiriladi, so'ngra tuklari qaychi bilan tekislanadi, to'qish shu taxlitda davom etaveradi.

Xulosa ornida shuni aytishimiz mumkinki, yillar mobaynida saqlanib kelayotgan ananalarimiz, qadriyatlarimizni, milliyligimizni saqlagan holda keyingi o'sib kelayotgan yosh avlodlarga yetkazib berishimiz zarur. Qadimdan kelayotgan gilam mahsulotlarimizdagi naqshlarni hozirgi kun talabini inobatga olgan holda dissinat yaratayotgan naqshning milliylik ko'rinishi va ranglar uyg'unligiga e'tirbor berishi zarur.

Har yili dunyo bo'yicha bir necha yuz milliard dollarlik kompyuter grafikasi mahsulotlari ishlab chiqariladi va o'z navbatida yangidan-yangi san'at durdonalari yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Федосенко Б. Е., Уткин А. Г. Ковровое производство. Государственное научно-техническое издательство легкой промышленности.-М.: «Типография Гизлегпрома» 1952 г.
2. Hasanboyeva G. To'qimachilik dizayni tarixi: O'quv qo'llanma.O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institute.-T.:«IQTISOD-MOLIYA», 2006 y.
3. <https://znaytovar.ru/new3608.htm>